

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2021 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosarlari: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Kasimbay Mamurov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Muhittin Gümüş

Altın Köprü Türkçe Öğretimi (B2 Ve C1) Ders Kitaplarının Avrupa Dilleri Ortak Çerçeve Programının Dil Düzeyi Göstergelerine Uygunluğu Açısından Değerlendirilmesi.....6

Zamira Hamidova

Usmonli Imperiyasi davrida tilni rejalashtirish va milliy o'zlikning barpo etilishi.....38

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Aidaxon Bumatova

Kichik lirik janrlar tarjimasidagi ba'zi muammolar.....51

Din. Falsafa. Ilohiyot

Komiljon Rahimov

Xoja Bahouddin Naqshbandning hayoti, faoliyati va qarashlari: G'ijduvoniya qaytish va Xojagon-naqshbandiya ta'limotining takomillashtirilishi.....65

Fan. Ta'lim. Metodika

Gulchehra Izbullayeva

Didaktik asarlarda madaniyat, maktab va pedagogik meros.....85

Fazilat Sattorova

Lingvistik kompetensiyaning ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishdagi ahamiyati.....105

CONTENT

Linguistics

Muhittin Gumush

Evaluation of Altın Bridge Turkish Teaching (B2 and C1) Textbooks
in Terms of Compliance with the Language Level Indicators of the
Common European Framework of Reference for Languages.....6

Zamira Hamidova

Language planning and national identity during the
Ottoman Empire.....38

Literature. Translation studies

Aidakhon Bumatova

Problems in the Translation of Smaller Lyric Genres.....51

Religion. Philosophy. Theology

Komiljon Rahimov

Hoja Bahouddin Nakshbandi, his Life, Activities and Views:
Return to Gijduvani and Improvemen of Khojagon-
Nakshbandiya's Doctrine.....65

Science. Education. Methodology

Gulchehra Izbullaeva

Culture, school and pedagogical heritage in didactic works.....85

Fazilat Sattorova

The Importance of Linguistic Competence
in Teaching English as a Foreign Language.....105

ADABIYOTSHUNOSLIK. TARJIMASHUNOSLIK
LITERATURE. TRANSLATION STUDIES

Kichik lirik janrlar tarjimasidagi ba'zi muammolar

Aidaxon Bumatova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada tarjimon tomonidan kichik hajmdagi she'riy janrlarni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida paydo bo'ladigan muammolar hamda mutarjim tomonidan amalga oshiriladigan asliyat matni tahlili va talqini, shuningdek, she'riy matn ruhiyatini tashkil etuvchi asosiy unsurlar bo'lmish shakl, ma'no va matnning poetik elementlari, ularning tahlili va tarjimada saqlanish qonuniyatlari muhokama qilingan. Badiiy tarjima o'zining pragmatik xususiyatlaridan kelib chiqib, boshqa tarjima turlari orasida nisbatan murakkabroq tizimni tashkil etadi. Maqolada barcha tahlillar Sharq mumtoz adabiyotining ingliz tiliga amalga oshirilgan tarjimasini namunalari asosida tahlil qilingan bo'lsada, ko'rib chiqiladigan muammolar va ularning taklif etilayotgan yechimini zamonaviy she'riyat tarjimasini jarayoniga nisbatan ham qo'llash mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: *she'riy tarjima, poetika, ritm, shakl, mazmun, vazn, poetik bo'yoqdorlik, tagma'no.*

Kirish

Jahonda Sharq adabiyotiga qiziqish uning o'ziga xos romantizmi, jozibador ruhiy-ma'naviy lazzat va zavq manbayi bo'lgan ohangi va falsafiy ma'nodorligi tufayli hamisha baland bo'lgan. Musulmon Sharqining buyuk shoirlari tomonidan yaratilgan mumtoz asarlar jahonda umumbashariy qadriyatlarni targ'ib etish, inson kamoloti bilan bog'liq ideallarni kuylash orqali kishilik jamiyati

¹ *Bumatova Aidaxon Merganovna* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: aidabumatova@gmail.com

ORCID ID : 0000-0002-6757-475X

Iqtibos uchun: Bumatova A.M. 2021. "Kichik lirik janrlar tarjimasidagi ba'zi muammolar". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 51-64.

taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Dunyoda ommaviy madaniyat, xususan, postmodernizm illatlari inson tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir davrda Sharq adabiyotiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. O'z vaqtida tarjima orqali G'arb adabiyotiga kirib kelgan, Gyote sevib o'qigan va qattiq ta'sirlangan Hofiz g'azallari bugun chet ellarda yana mashhur bo'lmoqda. Fors adabiyotining mashhur siymolari Umar Xayyom, Hofiz Sheroziy, Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumi asarlari tarjima vositasida minglab yevropaliklarning sevimli kitoblariga aylanib ulgurdi.

G'azal va ruboiy janrlarini bevosita o'zbek tilidan boshqa tillarga tarjima qilish hali o'zining ibtidoiy bosqichidadir. Uni tezlashtirishga xizmat qiladigan badiiy tarjima tanqidchiligi bir joyda deysinib turibdi. Oxirgi yillarda tarjimashunoslik muammolariga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar dunyo yuzini ko'rgan bo'lsa-da, tarjima amaliyotining, xususan, she'riy tarjimaning tub qatlamlariga chuqur kirilmadi. Mavjud she'riy tarjimalarning saviyasi bu sohadagi tadqiqot ishlarini jonlantirishni zaruriyatga aylantirmoqda.

Bu, o'z-o'zidan qardosh xalqlar, shuningdek, fors-tojik mumtoz adabiyoti namunalarini ingliz tiliga tarjima qilish bobida to'plangan jahon tajribasini o'rganish dolzarb muammo ekanligini bildiradi. Shu nuqtayi nazardan ularni qiyosiy-chog'ishtirma usulda o'rganish va o'zbek mumtoz she'riyati tarjimachiligining nazariy hamda amaliy asoslarini takomillashtirishga xizmat qildirish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Sharq badiiy san'atlarini ingliz tilida qayta yaratish, g'azal va ruboiy ohangi, ritmi, musiqiyliigi va shu kabi xususiyatlarini tarjimada saqlab qolish imkoniyatlarini chuqur tadqiq etish mazkur tadqiqotning zaruriyligini ko'rsatadi.

Lirik matn tarjimasidagi muammolar

Dunyo va o'zbek tarjimachiligida she'riy tarjima sohasida ancha ishlar amalga oshirilgan. Ularda, asosan, roman-german va slavyan tillariaro tarjimada aslyiat matni ma'nosini qayta tiklash va talqin qilish jarayonlari o'rganilgan bo'lib, tarjima sifatini aniqlashning bosh mezonlari sifatida adekvatlik va ekvivalentlik kategoriyalari atrofida bahs yuritilgan. Sharq tillari, xususan, turkiy tillardan ingliz tiliga she'riy tarjima qilish nazariyasi va amaliyoti bo'yicha tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Olimlarning oldida turgan vazifalardan eng dolzarblaridan biri sharq mumtoz lirikasining ingliz tiliga tarjima qilishning prinsiplari va qonuniyatlarini o'rganib chiqishdan iboratdir.

Kichik lirik janrlar nasriy asarlarga qaraganda shaklan qisqa bo'lsa-da, prozada yozilgan o'nlab, gohida esa yuzlab sahifalarda bayon etiladigan g'oya va maqsadni mo'jaz misralar yoki baytlar mag'ziga singdira olishi bilan farqlanadi. Har qanday matnning asosiy maqsadi muallif va o'quvchi o'rtasida muloqotni shakllantirishdir. Bu turdagi kommunikatsiyaning amalga oshishidagi asosiy talab undagi fikrning tugal va tushunarli bo'lishi bilan belgilanadi. She'riy matnning nasriy asarlardan yana bir farqi undagi fikrlar va ifoda etilayotgan hissiyotlarning siqiq bo'lishidadir.

Kichik hajm ichida ohang va chuqur ma'noni bera olish uchun shoirlar she'riy matnlarda kompozitsion va sintaktik paralellizm, obrazlilik, ritmik va original shakliy qurilmalardan foydalanadilar.

“Badiiy nutqning poetik tuzilishi bo'lmish she'riyat poetik tarjima tamoyillariga ham ta'sir etmay qolmaydi. She'riy nutq muayyan bir o'lchov asosidagi ritmgaga egaligi, musiqiy jarangi, hissiyoti bilan qolgan nutq turlaridan farqlanadi” [Quronov 2013, 358]. Tarjimon, garchi, mualliflikka da'vo qilmasa-da, qaysidir ma'noda, asliyat uslubi, tili, ohanglari va ritmni qayta yaratuvchi ikkinchi muallif hisoblanadi.

She'r ritmini ta'minlovchi jihatlarni Y.G.Etkind quyidagicha tasniflaydi:

- urg'ular ritmi yoki metrik ritm;
- katalektika yoki ochiq va yopiq bo'g'inning birin-ketin qo'llanilishi;
- misra oxiridagi qofiyadoshlik;
- sillabik ritm yoki bo'g'inlar sonining tengligi;
- pauzalar ritmi;
- misra ichidagi hamohanglik ritmi;
- urg'ular ritmi;
- sintaktik ritm yoki sintaktik paralellizm;
- strofa yoki misralar ritmi [Etkind 1974, 104-120].

Albatta, she'riy matn tarjimasida yuqoridagi tasnifni to'liq qo'llashning iloji yo'q. Shu nuqtayi nazardan tarjima jarayonida quyidagi urinishlar noto'g'ri hisoblanmaydi:

1. Matnning bir qismi qayta tiklanmaydi va tarjimaga kiritilmaydi.


2. Matnning bir qismi o'z shaklida emas, balki turli xil o'zgarishlarga uchragan shaklda qayta yaratiladi.

3. Asliyat matnida bo'lmagan yangi unsurlar kiritiladi.

Shunday bo'lsa-da, asliyat tilida muayyan qiymatga ega bo'lgan matn bilan ishlayotgan tarjimonning har ikkala matn orasida shakliy-

semantik va poetik yaqinlikni ta'minlashi, tarjimada badiiy yaxlitlikni ta'minlovchi shakl va ma'no birligini yaratishi, ya'ni o'quvchiga muallifning ijodiy fikri, g'oyasi va tasvirlarining nozik qirralarini yetkazishga harakat qilishi tarjima jozibasi va o'qimishlilikini oshiradi. Bu jarayonda tarjimonga ikki til xususiyatlari o'rtasidagi nomuvofiqliklar jiddiy xalaqit beradi. Bu nomuvofiqliklar lingvistik va ekstralingvistik tabiatga ega bo'lib, tarjima jarayonidagi katta muammolardan sanaladi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1-sxema



1. Fonetik-fonologik sathdagi nomuvofiqliklar.

She'r tarjimasida ohangni ta'minlash tarjimon yechishi lozim bo'lgan eng qiyin muammolardan biridir. So'zlarning shakliy qo'big'i sanalmish harflar va ularning talaffuzdagi ko'rinishi bo'lmish tovushlarning aslyat va tarjima tillarida o'zaro yaqinligi tarjimaning retseptor tomonidan oson qabul qilinishi va tarjimaning sifatli chiqishiga xizmat qiladi. Qardosh tillar orasida fonetik yaqinlik bor. Biroq Sharq va G'arb tillari orasida bir xil tovushlar tizimi mavjud emas. Shu jihatdan bir tilda tovushlar yordamida yaratilgan estetik go'zallikni ikkinchi tilda aynan uzatishning imkoni yo'q. Erkin Vohidov qalamiga mansub quyidagi she'rda, e'tibor berilsa, "q" tovushi-

ni takror keltirish orqali o'ynoqi ritm yaratilgan. Go'yo mazkur undosh (ohangdosh) tovushlar baytdagi so'zlarga ulashib chiqilgandek tasavvur paydo qiladi [Rahmonova 2020, 16]. Bu she'rni ingliz tiliga shunday o'ynoqi ohangda yetkazish juda qiyin masala. Masalan, she'rning ikki misrasi va uning so'zma-so'z tarjimasini keltiramiz:

Asliyat:

Qaro qoshing, qalam qoshing

Qiyiq qayrilma qoshing qiz
[Vohidov 2005, 5].

Tarjima:

Your black eyebrow, your colored eyebrow

Your bonny arched eyebrow, maid

Bu tarjima matnida asliyatdagi "q" tovushining takrorini saqlashning iloji yo'q. Zero, she'rdagi kalit so'z va tushunchalar bo'lmish "qaro, qosh, qiz" kabilarning birortasi ingliz tiliga "q" harfi bilan boshlanadigan so'zlar bilan tarjima qilinmaydi. Bundan tashqari, ularni bir harf bilan boshlanadigan inglizcha so'zlar vositasida ham berib bo'lmaydi.

2. Leksik sathdagi nomuvofiqliklar.

She'riy matn, ayniqsa, mumtoz lirik janrlar tarjimoni zimmasida katta mas'uliyat bor. Zamonaviy she'riyat namunalaridan farqli ravishda, mumtoz asarlar "tili" pirovard tarjimaning sifatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etuvchi unsurdir. G'azal va ruboiy matnlarini ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida asliyat va retseptor tillarining leksikasi o'rtasidagi mavjud farqlar ko'p uchraydi. Bu asliyatda yaratilgan obrazlarni tarjima tiliga uyg'un tarzda uzatishda to'siq bo'ladi. Tillar orasida bir-biriga nomuvofiq keladigan leksikaning katta qismini realiyalar tashkil etadi. Masalan, g'azal va ruboiy matnlaridagi quyidagi so'z va iboralarning ingliz tilida tarjimasini mavjud emas.

Oshiq obrazini ta'riflashda ishlatiluvchi so'zlar	Ma'shuqa obrazini ta'riflashda ishlatiluvchi so'zlar	Kundalik jihozlarni ta'riflashda ishlatiluvchi so'zlar	Joy nomlarini ta'riflashda ishlatiluvchi so'zlar
<i>Oshiq</i>	<i>Sarvinoz</i>	<i>Xizr suyi</i>	<i>Firoq tog'i</i>
<i>Oshuftahol</i>	<i>Oromijon</i>	<i>Jomi jam</i>	<i>Xajr vodiysi</i>
<i>Majnunvash</i>	<i>Ruhi ravon</i>	<i>Mug'</i>	<i>Balo tog'i</i>
<i>Shahid</i>	<i>Ra'noqad</i>	<i>Sha'mi rahmat</i>	<i>Malomat dashti</i>
<i>Pokboz</i>	<i>Pari ruxsor</i>	<i>Gulob</i>	<i>Diliston</i>
<i>Bexonumon</i>	<i>Parivash</i>	<i>Hulla</i>	<i>Naysiton</i>

Majnunvash	Pari-paykar	Kafan	Xonaqo
------------	-------------	-------	--------

Bu kabi soʻz va iboralar gʻazal va ruboiy matnlarining deyarli har birida uchraydi. Ularning ingliz tilida ekvivalenti yoʻq.

3. Sintaktik sathdagi nomuvofiqliklar.

Bu turdagi muammolar tillar oʻrtasidagi gap qurilishida gap boʻlaklarning sintaktik bogʻlanishidagi farqlardan kelib chiqadi. Oʻzbek tilidan ingliz tiliga va aksincha qilingan tarjimalarda, bu sathdagi muammolarning dolzarbligi yaqqol namoyon boʻladi. Bundan tashqari, ingliz tilidagi predlog va artikl kabi yordamchi soʻz turkumlari oʻzbek tili uchun xos emas. Demak, tillarning sintaktik sathidagi nomutanosiblikdan kelib chiqqan holda, tarjima jarayonida gapdagi soʻzlarning aynan bogʻlanish tartibini saqlab qolishning iloji boʻlmaydi. Sheʼriy matnlarning oʻziga xos qurilishi, inversiya hodisalari, gap boʻlaklarining tushirilib kelishi kabi holatlarni asliyat matnlarida koʻplab uchratish mumkin. Misol:

*Gul kerakmastur menga, majlisda sahbo boʻlmasa,
Naylayin sahboni bir gul majlisoro boʻlmasa* [Навойй 97, 18].

L.Kmetyuk tarjimasini:	Baytning tarjimasini:
<i>I need no flower if there is no wine in our sirsle,</i>	<i>Agar davramizda may boʻlmasa, menga hech qaysi gul kerak emas,</i>
<i>What do I need wine for if one flower is missing among the guests?</i> [Ummondan durlar 2000, 126]	<i>Menga may nega kerak agar mehmonlar ichida bitta gul boʻlmasa.</i>

Yuqorida inversiya koʻrinishida boshlangan bayt ingliz tiliga toʻgʻri soʻz tartibi bilan tarjima qilingan. Ikkinchi misrada eganing belgisiz kelishi saqlanmagan.

D.Deli tarjimasini:	Baytning tarjimasini:
<i>Petals adorn nothing without wine's blush of joy.</i>	<i>Gul barglari mayning qizgʻish rangli xursandchiligisiz, hech narsani bezamaydi,</i>
<i>Why drink wine in the absence of beauty's pure joy?</i> [Daly 2016, 40]	<i>Goʻzalning sof xursandchiligi boʻlmagan joyda, ichishga nima hojat?</i>

Tarjimon mazkur baytda shaklni saqlashga erishgan boʻlsa-da, maʼno oʻzgarib ketgan. Yana bir misol:

*Yor vaslig'a quvondim, qovdi ko'yidin meni,
Ey Navoiy, hech kishi davlatg'a mag'rur o'lmasun.*

L.Kmetyuk tarjimasi:	Baytning tarjimasi:
<i>The thought of seeing her gave me joy but she dismissed me,</i>	<i>Uni ko'rishning xayoli menga xursandchilik baxsh etadi,</i>
<i>O, Navoiy, let no man boast of his attainments.</i>	<i>O, Navoiy, hech bir insonni o'zining ilmidan mag'rur bo'lishiga yo'l qo'ymagin.</i>

D.Sultanova tarjimasi:	Baytning tarjimasi:
<i>Joyously sang of my love, but she frowned, bid me wind away,</i>	<i>Sevgilim haqida xursandchilik bilan kuyladim, ammo u ensasini qotirdi, meni shamoldek haydadi</i>
<i>O Navoiy let no one of his mighty power too proud be [Sultanova 2015, 14].</i>	<i>O Navoiy, hech kimsani o'zining qudratli kuchidan juda kibrlanishiga yo'l qo'yma</i>

Har ikkala tarjimon ham “bo'lmasin” so'zini “**let**” fe'lining inkor shakli bilan tarjima qilishga majbur bo'lgan. Buning sababi ham tillarda gap qurilishi qoidalarining turli ekanligidir.

4. Lingvostilistik sathdagi nomuvofiqliklar.

Badiiy tilga xos bo'lgan ayrim so'z, ibora va obrazlarning boshqa tilda muqobili yo'qligi yoki teskari ma'no bo'yoqdorligini kasb etishi tarjima jarayonida muayyan muammolarni tug'diradi. Alisher Navoiyning “Gul sochar yel bog' aro...” misrasi bilan boshlanuvchi g'azalining to'rtinchi bayti misolida yaqqol ko'rish mumkin:

*Demangizkim, keldi mahvashlar seni o'lturgali,
Muni dengkim, qotili nomehribonim keldimu.*

Misradagi “qotili nomehribon” obrazi, aslida, erkalash ma'nosida kelgan. Inglizcha matnda salbiy ma'noni anglatuvchi so'zlar yordamida o'girilgan. Natijada, asliyat matnidagi ijobiy obraz tarjima matnida professional qotil va bezoriga aylanib qolgan:

L.Kmetyuk tarjimasi:	Baytning tarjimasi:
<i>Do not say you have come to slay me my beauties,</i>	<i>Mening go'zallarim, meni o'ldirish uchun kelganingizni aytmang,</i>

<i>But tell my whether my pitiless assassin has come.</i>	<i>Ammo ayting mening kelgan-kelmaganini mening shavqatsiz qotilim.</i>
---	---

Tarjimada shoir to'g'ridan to'g'ri "go'zallar"ga murojaat qilmoqda, asliyatda bu murojaat shoirning atrofidagi yor-do'stlarga qaratilgan edi. "But tell my" birikmasi grammatik qoidaga ko'ra "But tell me" bo'lishi kerak. "Assassin" so'zi stilistik neytral so'z hisoblanmaydi. Bu so'z o'rta asrlarda ham, hozir ham pul uchun kimningdir buyurtmasi bilan insonlarning jonini oluvchilarni bildiradi.

D.Deli tarjimasi:	Baytning tarjimasi:
<i>Though hooligans may threaten, may strike at me,</i>	<i>Bezorilar menga tahdid, jonimga tajovuz qilishlari mumkin bo'lsada,</i>
<i>Only she can succeed, she, the pitiless one.</i>	<i>Jonimni olish faqat uning qo'lidangina keladi, mening shafqatsizim.</i>

Tarjimon "hooligans" – "bezorilar" obrazini shoir asliyatda qo'llagan "mahvashlar" o'rniga foydalanishi, original mazmunini yaxshi tushunmaganlik hamda mumtoz adabiyot an'analari bilan tanish bo'lmaganligi natijasida paydo bo'lmoqda.

Aynan shu baytning D.Sultanova tomonidan amalga oshirilgan tarjimada "qotili nomehribon" iborasi "merciless slayer" birikmasi tarzida to'g'ri berilgan:

D.Sultanova tarjimasi:	Baytning tarjimasi:
<i>Only not tell me that those mysterious beauties to slay me came,</i>	<i>Menga faqatgina u sirli go'zallar meni o'ldirgani kelganini ayt mang,</i>
<i>Do tell me, it might be, that slayer, my merciless one came.</i>	<i>Undan ko'ra, bu o'sha qotil, mening beshafqat yagonam kelgan bo'lishi mumkinligini ayting.</i>

5. Adabiy-estetik sathdagi nomuvofiqliklar.

Mazkur sath bevosita adabiyot va tilning estetik xususiyatlari bilan bog'liqdir. Alisher Navoiyning quyidagi ruboiysi matnida arab harflarining shakli yordamida tasvir yaratilgan:

*Jonimdagi "jim" ikki dolingg'a fido,
Andin so'ng "alif" toza niholingg'a fido,
"Nun"i dog'i anbarin hilolingg'a fido,
Qolg'on iki nuqta ikki xolingg'a fido.*

Yuqorida keltirilgan ruboiydagi “jon” so’zida “jim” ج harfi – yorning zulfiga, “alif” – ا mahbubaning qomatiga, “nun” – ن qoshiga, ikki nuqta, ya’ni “j” va “nun” harflaridagi nuqtalar yorning ikki xoliga qiyoslangan holda ma’shuqaning obrazi yaratilmoqda.

Ko’rib turganimizdek, arab alifbosiga asoslanmagan yozuv tizimlarida shakl o’z ichiga qamrab olgan ma’noni boshqa tildagi harflar vositasida uzatishning sira ham iloji yo’q. Sababi, tillararo assimetriya hodisasi bu kabi shakliy bezaklarni ingliz tiliga tarjima qilishni imkonsiz qilib qo’yadi. Shu o’rinda Muhammadrizo Ogahiyning quyidagi baytiga ham e’tibor qaratsak:

*Mushkin qoshingning hay’ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun nas keltirur nun eltibon sod ustina.*

Mahbubaning ko’zlari – jallod. Uning qoshi – qilich. Jallod bechora oshiqni qatl etish uchun qilichini yuqori ko’targanicha, uning qatl farmonni o’qimoqda. Mana shu obrazni ingliz tilida yaratish uchun, afsuski, lotin yozuviga asoslangan alifbo imkon bermaydi.

She’r bandlari tuzilishini asl nusxaga maksimal darajada yaqin o’girish, asliyat va tarjima matnlari o’rtasida shakliy mutanosiblikni ta’minlash asar janrini tarjimada aks ettirish muammosi bilan bog’liq. Bu esa, o’z-o’zidan, ohangni beruvchi so’zlarni muayyan qolipga solishni talab qiladi. Asl nusxa va tarjima matnida o’xshash bandlar tizimidan foydalanilgan taqdirda ham tarjimon oldida katta bir muammo paydo bo’ladi: ko’pincha, asliyat ohangini yaratishga tarjima tiliga xos so’z talaffuzi va hajmi imkon bermaydi. Mumtoz adabiyot namunalari tarjimasida bu kabi muammoning eng yorqin misoli sifatida tuyuq janri tarjimasini keltirish mumkin.

Alisher Navoiy:	Margaret Firey tarjimasi:	Mazmuni:
<i>Yo rab, ul shahdu shakar yo labdurur, Yo magar shahdu shakar yolabdurur. Jonima payvasta novak otqali</i>	<i>Oh God, it is either hon- ey and sugar or a lip Or perhaps it has licked honey and sugar. That he might continu- ally shoot arrows at my soul</i>	<i>Ey xudo, bu yo asal va shakar, yo labdir, Yo balki, u yalagandir asal va shakar. U mening qalbinga to’xtovsiz o’qlar otadiki,</i>
<i>G’amza o’qin qoshig’a yolabdurur.</i>	<i>He has put the arrow of his glance to his brow [Fearey 1977, 139].</i>	<i>O’zining qarashi o’qini qoshiga joylabdi.</i>

Mazkur parcha “yo lab” va “yolab” omonimlari bildirgan ma’no jilvalari ustiga qurilgan. Birinchi misradagi “yo labdurur” birikmasi “yoki labmikan”, ikkinchi misradagi “yolabdurur” – “yalaganmikan”, uchinchi misradagi “yolabdurur” – “yo shaklida qilib, ya’ni egik shaklda joylamoq” ma’nolarini anglatadi. Ingliz matnining so’zma-so’z tarjimasidan ko’rinib turganidek, asliyatning ma’nosi tarjimada to’lig’icha aks etgan. Ammo qofiya sifatida ishlatilgan birikmalarning ingliz tilida omonimik xususiyatga ega bo’lmaganligi, tarjimada ma’no bilan birgalikda shaklni ham qayta yaratish imkonini bermaydi.

Navbatdagi tarjimada ham, omonimiyaning ham saqlanmaganini kuzatamiz:

Alisher Navoiy:	Margaret Firey tarjimasi:	Mazmuni:
<i>La’lidin jonimg’a o’tlar yoqilur,</i>	<i>By his ruby (lips) fires are set in my soul.</i>	<i>Uning ol lablaridan jonimda o’tlar yoqiladi,</i>
<i>Qoshi qaddimni jafodin yo qilur.</i>	<i>His brow from faithlessness has made my stature a “ya”.</i>	<i>Uning qoshi bevafoqlikdan mening qomatimni “ya” qildi.</i>
<i>Men vafosi va’dasidin shodmen,</i>	<i>I am happy because of the thousand, lying promise(s) of his fidelity;</i>	<i>Men uning vafo haqidagi minglab yolg’on va’dalaridan xursandman.</i>
<i>Ul vafo, bilmonki, qilmas yo qilur?</i>	<i>I don’t know whether he will act (with) that fidelity or not.</i>	<i>Men bilmayman, u menga o’sha vafoni qiladimi yoki yo’q.</i>

Yana bir misol:

Alisher Navoiy:	Margaret Firey tarjimasi:	Mazmuni:
<i>Necha dedim ul sanamg’a bormag’in,</i>	<i>However much I told that idol (beautiful boy), “Don’t come!”</i>	<i>Necha marta men desam ham o’sha mabudga (go’zal yigitga), “Kelma!”</i>
<i>Qilmadi ul tark oxir bormag’in.</i>	<i>In the end he did not give up his coming.</i>	<i>U oxir-oqibat kelishini hech qo’ymadi.</i>
<i>Munchakim xudroyliq ko’rguzdi ul,</i>	<i>Thus he exhibited his stubbornness;</i>	<i>U ko’rsatib o’zining o’jarligini;</i>
<i>Aql hayrat qildi, tishlab bormag’in.</i>	<i>He has confused the mind, having bitten his finger.</i>	<i>U aqlni adashtirdi, o’zining barmog’ini tishlab.</i>

Bu tuyuqning tarjimasida ham asliyatdagi **“bormag’in”** vositasida berilgan so‘z o‘yini shaklan qayta tiklanmagan. Birinchi misradagi **“bormag’in”** – buyruq ma’nosidagi **“borma”** fe’lidir. Ikkinchi misradagi **“bormag’in”** – shu fe’lning harakat nomi shakli bo‘lib, **“borishini”**, **“boradigan odatini”** bildiradi. To‘rtinchi misradagi **“bormag’in”** so‘zi esa – **“barmoq”** ma’nosida ishlatilgan bo‘lib, uning vositasida **“barmog‘ini tishlamoq”** ya’ni **“hayratda qolmoq”** ma’nosi uzatilmog‘da. Tarjima matnining so‘zma-so‘z tarjimasidan ko‘rinib turganidek, asliyat matnini o‘girish jarayonida bir necha xatoliklarga yo‘l qo‘yilmog‘da. Birinchidan, inglizcha matnda **“barmoq”** fe’li **“kelmoq”** bilan o‘zgartirilgan. Mantiqan olganda, oshiqning ma’shuqaga qarab **“kelma”** deyishi noo‘rindir. Ikkinchidan, **“He has confused the mind, having bitten his finger”** misrasi asliyat matniga umuman zid. Aqlning hayratda qolgani va ma’shuqaning o‘z barmog‘ini tishlashi boshqa-boshqa obrazlardir. Va nihoyat, xuddi avvalgi ko‘rgan tuyuq tarjimasida bo‘lgani kabi, bu tarjimaga ham **“mujskoy rod”**ni bildiruvchi **“he”** va **“his”** olmoshlari kiritilgan hamda **“sanam”** so‘zi **“beautiful boy”** kiritmasi bilan izohlangan. O‘zbek tilida rod kategoriyasining kishilik olmoshlari bilan ifodalanmasligi, ega yoki to‘ldiruvchi vazifasini bajarib kelgan kishining grammatik jinsi esa mantiqan belgilanishi hisobga olinganda, bu xatoga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lardir.

6. Madaniy sathdagi nomuvofiqliklar.

Til va madaniyat bir-biriga chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Bir tildan boshqa tilga so‘z ma’nosining uzatilishi o‘z ichiga shu tilga mansub madaniy konseptlarning ham ko‘chirilishini taqozo qiladi. Ko‘p hollarda buning iloji yo‘q. Misol:

*Bordi o‘qdek tezu yoydek qomatim yod etmadi,
Ishq aro go‘yo mening egriligimni bildi yor.*

L.Kmetyuk tarjimasini:	Baytning tarjimasini:
<i>She went as swiftly as an arrow flies, unmindful of my bowed-down frame,</i>	<i>U xuddi o‘q uchganidek tez ketdida, mening egik qaddim haqida o‘ylab ham ko‘rmadi,</i>
<i>As though my faintheartedness had been discerned by my beloved.</i>	<i>Xuddiki, mening qo‘rqoqligim mening mahubam tomonidan anglab olinganidek.</i>

Mazkur baytning birinchi misrasida ikkita o‘xshatish

qo'llanilgan: "o'qdek" va "yoydek". Sharq lirik adabiyotiga xos bo'lgan g'amdan qiynalgan odamni "qaddi bukik" deyish, gavnani "yoy" – kamondek bukilishiga o'xshatish ingliz tilida qo'llanmaydi. Natijada, ikkinchi misraning ma'nosi asliyatdagi fikrdan mutlaqo uzoqlashib ketgan. Xususan, asliyatda shoirning "yoydek egilgan qaddinga parvo ham qilmay, meni tashlab ketdi" mazmunidagi nolasini qanday uzatishni bilmay, uni qo'rqqoqlikka yo'ygan. Quyidagi tarjimada esa asliyatdan mutlaqo farq qiladigan xulosa yasalgan:

D.Deli tarjimasi:	Baytning tarjimasi:
<i>Propelled through the sky as an arrow leaves the bow,</i>	<i>Xuddiki o'q kamonni tark etganidek osmon bo'ylab uchib o'tdi,</i>
<i>The long bow of my timid soul. My beloved</i>	<i>Mening mushfiq ko'nglimning uzun kamoni. Mening sevgim.</i>

